



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 734 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsonal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики.....	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari.....	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi.....	320
Karlibaeva Gulshat	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	325
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish.....	330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан.....	336
Хамракулова Сусанна Тотуховна	
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash	340
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari	357
Oqmullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjievna Durdona Abdurasulovna	
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях.....	361
Muradov Botir Xayat	
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bog'liqligi, xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar	370
Xushmurotov Zoyir Bektemirovich	
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market.....	374
Zebiniso Ganiyeva	
Farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar	379
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	
O'zbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash	384
Umirova Dilnoza Safarovna	
Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan	393
Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod	
The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market.....	399
Juraboev Haliljon	
Iqtisodiy o'sish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yo'llari.....	404
Haydarov Jahongir Aktamovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslari va xorijiy tajribalar	410
Quvondiqov Farrux Ibragimovich	
Tijorat banklarida iqtisodiy samaradorlikni axborot texnologiyalar orqali rivojlantirish istiqbollari.....	418
Dadenova Gulxan Kenesbaevna	
Механизмы совершенствования процедур выявления и анализа недостоверной финансовой отчетности в условиях учетной практики Узбекистана	422
Намозов Жасурбек Кувадович	
Влияние цифровых инструментов управления финансами на эффективность использования финансовых ресурсов	428
Хазираткулов Собиржон	



На пути к промышленному росту: опыт развивающихся стран.....	435
Матлюбов Хуршид Жамшидович	
Yoshlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishida aksiyalar bozorining o'рни va imkoniyatlari.....	443
O'raqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li	
Развитие транспортной инфраструктуры и влияние на качество предоставляемых транспортных услуг.....	448
Кайыбеков Парахат Конысбаевич	
Surxondaryo viloyatida 2015-2024 yillar mobaynida oziq-ovqat chakana savdo aylanmasining statistik tahlili.....	454
Toshpulatov Bobur Rasul o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirish.....	458
Tolibov Shoxrux Muminovich	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari.....	463
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Institutional innovation and regional governance for balanced interregional cooperation development: the case of Namangan, Uzbekistan.....	468
Sattarov R.A.	
Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region.....	476
Daminova Barno Esanovna	
Moddiy zaxiralarni boshqarish va uning bir tsikli modeli.....	480
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish va uni samarali boshqarish mexanizmlari.....	485
Salimov Akmal Alimjonovich	
Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilg'or xorij tajribalari.....	490
Shadiyev Alisher Xudoynazarovich	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari.....	496
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
O'zbekistonda uzumchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	502
Tursunov To'liqin Jo'raqulovich	
Tadbirkorlik faoliyatining resurs salohiyati va uni baholashning nazariy yondashuvlari.....	508
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
Yoshlar bandligini ta'minlashda mehnat migrasiyasining ahamiyati.....	514
Masharipov Farrux O'tkirovich	
O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning asosiy omillari va istiqbollari.....	521
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
Korxonaning brend platformasini ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari.....	526
Sa'dulloev Habibullo Ibdullo o'g'li	
Sanoat korxonalarining biznes jarayonlarini raqamli transformatsiya qilishda ERP tizimlarining integratsiyalashuvi va boshqaruv samaradorligiga ta'siri.....	530
Islomjon Nurmukhammadov	
Namangan viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlanishini baholash.....	533
Ismoilova Savinoz Qahramon qizi	
Oliy ta'lim muassalari boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	540
Karimov Muzaffar Abdumalik o'g'li	
Soliq yig'iluvchanligini oshirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish istiqbollari.....	546
Tojibayev Farrux Baxtiyorovich	
Hisoblash mashinalari taraqqiyoti tarixi va uning raqamli iqtisodiyotda tutgan o'рни.....	552
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning xususiyatlari.....	561
Choriyrov Behruz Ilhom o'g'li, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Yashil texnologiyalar yordamida O'zbekiston hududlarida energiya tejamkorligi oshirish yo'llari.....	567
Norbekov Baxtiyor Suyunovich, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	



Tijorat banklarida kredit majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish va uni takomillashtirish yo'llari.....	572
To'xtayeva Go'zal Ilhom qizi, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Интеграция проектного менеджмента и обеспечения качества в цепочках поставок: кейс Узгидромета.....	577
Назарова Ирода Ибрагим кизи	
Kichik biznes subyektlarini raqamlashtirish orqali raqobatbardoshligini oshirish.....	583
Ermatov Akmaljon Adxamovich, Raximov Alisher Numanovich	
Концепция и методология экологического аудита в Узбекистане	587
Абидова Дилфуза Игамбердиевна	
Повышающаяся значимость коренного изменения деятельности традиционных СМИ в реалиях освещения процесса построения нового Узбекистана.....	593
Салим Дониёров	
O'zbekiston Respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining tarkibiy tuzulishi	598
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Shahar va qishloqlarda inson resurslari holatining analitikasi (tahlili)ning nazariy masalalari.....	607
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
Strategic alliance networks as competitive advantage: evidence from mit-tum partnership model at new Uzbekistan university	613
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning nazariy asoslari.....	618
Uralov Temur Boxodir o'g'li	
O'zbekiston bank amaliyotiga ai va simulyatsiya modellarini joriy etish orqali muammoli kreditlarni qaytarish jarayonlarini optimallashtirish.....	618
Xodjayev Husniddin Mukammilovich	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	624
Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Jamshid Sharafetdinovich	
Xorazm viloyatida iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashdagi muammolar va imkoniyatlar	628
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
Ekologik joylashtirish vositalarida qo'llaniladigan innovatsiyalar	633
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning metodologik va metodik asoslarini takomillashtirish yo'nalishlari	638
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
Gaz sanoatining moliyaviy boshqaruvi va milliy iqtisodiyotdagi barqarorlik omili sifatida roli.....	650
Ergashev Muhubbek Aslam o'g'li	
Davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratning ahamiyati	655
Erkinova Maftuna Zafarovna	
Влияние дивидендной политики, СПО и капитализации на волатильность акций АО «УзРТСБ»: Эконометрический и поведенческий анализ.....	662
Пулатов Улугбек Хапизович	
Hududiy jihatdan ziyorat turizmi rivojlanishining holati: Qashqadaryo viloyati misolida.....	671
Uzaqov Norboy, Uzaqov Jamshid Norboyevich	
Integration of digital twin and BIM technologies in construction enterprises in Uzbekistan: prospects and challenges	676
Nigmatjonova Nozima Ulmasjonovna	
Yashil bank xizmatlari – tijorat banklari moliyaviy mahsulotlar misolida	682
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
Tijorat banklari faktoring xizmatlari orqali kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish	688
Jalilov Azizbek Baxodir o'g'li	
Oliy ta'limda xizmat sifatini baholash va marketing integratsiyasi orqali rivojlantirish strategiyalari.....	694
Maxmudov Faxriddin Umarovich	



Qurilgan mevalarni xalqaro bozorda targ'ib qilish bo'yicha kontent-marketing strategiyasidan foydalanish yo'llari	699
Yunusov Baxodir Marisovich	
Онлайн трансграничные переводы и их влияние на валютное таргетирование со стороны центрального банка Республики Узбекистан.....	704
Садыков Азиз Миршарапович	
Aholi ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	709
Azimova Xurshida	
Analysis of factors affecting the economic integration of the countries of Uzbekistan and Afghanistan.....	715
Toran Tajuddin	
Aniq fanlarni o'qitishda metakognitiv yondashuvlar	719
Farmonov Dilshod Po'latovich, Nigmatov Izzat Shovkat o'g'li	
Yevropa hamjamiyatining "Yashil" ziyorat loyihasi va uni ziyorat turizmini rivojlantirishdagi ahamiyati.....	727
O'rinova Durdona Botir qizi	



nisbatan ko'proq ish o'rinlari mavjud. Qayta tiklanadigan energiyaga yo'naltirilgan har bir dollar qazib olinadigan yoqilg'i sanoatiga qaraganda uch baravar ko'p ish o'rnini yaratadi.

Moslashuvga sarmoya kiritish iqlim o'zgarishi ta'siriga, jumladan, iqlim bilan bog'liq iqtisodiy yo'qotishlarga qarshi turish uchun kalit omil hisoblanadi. Chidamlilikka sarmoya kiritish — ekologik va ijtimoiy tizimlarning xavfli hodisalarga bardosh berish qobiliyati — ofatlardan keyingi bartaraf etish xarajatlarini kamida yarmiga qisqartirishi mumkin.

Bu borada hozirgi kunda global muammolardan biri sifatida ko'rilayotgan "yashillik" tushunchasi deyarli barcha sohaga singmoqda. Barqaror turizmni ta'minlash, ya'ni turistik resurslar va obyektlarni kelajak avlodga yetkazish masalasida jahon mamlakatlarida turli loyihalar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri Yevropa hamjamiyatining "yashil" ziyorat loyihasidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ziyorat turizmi ekologik barqarorlik va madaniy merosni asrash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan soha hisoblanadi. So'nggi yillarda Yevropa Ittifoqi ushbu yo'nalishda "yashil" ziyorat konsepsiyasini ilgari surib, turizm faoliyatini ekologik me'yorlar asosida yo'lga qo'yishga e'tibor qaratmoqda. Bu borada bir qator tadqiqotchilar "yashil" ziyorat modelining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik afzalliklarini asoslab bergan. Xususan, Weaver "barqaror turizm" tushunchasini chuqur tahlil qilib, ziyorat joylarining ekologik yuklamasini kamaytirish uchun tashriflar sonini muvozanatlash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu model turistik oqimni nazorat qilish, mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilish va muqaddas joylarning ekologik holatini saqlashga xizmat qiladi.

Ruhan ham, fizik jihatdan ham o'ta nozik bo'lgan ziyorat maskanlari uchun ekologik yondashuv muhim. Lane va Kastenholz barqaror turizm siyosatida ekologik yo'nalishli marshrutlarni ishlab chiqish orqali sayyohlik faoliyatini tabiatga zarar yetkazmagan holda tashkil qilish mumkinligini asoslaydi. Ular Yevropa qishloq joylarida joriy etilgan "eko-marshrutlar" modelini o'rganib, bu tizim orqali diniy va tarixiy obyektlarga sayohat qilish bilan birga, tabiiy landshaftlarni saqlab qolish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu esa "yashil" ziyorat kontsepsiyasining amaliy samarasini ko'rsatadi.

Bramwell va Lane esa o'z tadqiqotlarida "yashil turizm" va hududiy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka urg'u beradi. Ularning fikricha, ekologik mezonlar asosida tashkil etilgan turizm yo'nalishlari mahalliy iqtisodiyotga yangi imkoniyatlar ochadi, ayniqsa Yevropa Ittifoqi doirasida amalga oshirilayotgan transmilliy marshrutlar (masalan, Santiago de Compostela yo'li) turizmni ekologik va madaniy integratsiya vositasiga aylantirgan. Bu yo'nalishlarni boshqarishda zamonaviy texnologiyalar, jumladan GIS tizimlari va ekologik monitoring vositalari keng qo'llanilmoqda.

Shuningdek, Timothy va Olsen tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ziyorat turizmida "yashil" prinsiplarni joriy etish orqali nafaqat tabiatni, balki ziyoratchilarning ruhiy holatini ham sog'lomlashtirishga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Ularning tahliliga ko'ra, "yashil" ziyorat marshrutlari tashrif buyuruvchilarga shovqinsiz, toza havo va ekologik muvozanatli muhitni taklif etib, ziyorat tajribasini yanada mazmunli qiladi.

Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Yevropa Hamjamiyatining "yashil" ziyorat loyihasi turizmning barqaror modelini yaratishda, ekologik ongni shakllantirishda va ziyorat faoliyatining uzoq muddatli ijobiy ta'sirini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Mazkur konsepsiya orqali ziyorat marshrutlarida ekologik infratuzilma, qayta tiklanadigan energiya manbalari va chiqindilarni boshqarish tizimlari joriy etilmoqda, bu esa uni global miqyosda zamonaviy turizm siyosatining ajralmas qismiga aylantirmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar Yevropa Hamjamiyatining rasmiy hisobotlari, "Yashil" ziyorat loyihasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va turizm statistikasiga asoslangan holda yig'ildi. Tahlil jarayonida kontent tahlili, solishtirma tahlil hamda mintaqaviy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'zaro bog'lash usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Yashil" va barqaror turizm — insonlar, atrof-muhit va iqtisodiyotga ijobiy (salbiy ta'sirdan farqli o'laroq) ta'sir ko'rsatgan holda turistik hududlarga tashrif buyurish tushunchasini anglatadi. Bu tushuncha mahalliy jamoalarga, ularning an'anaviy madaniyati va urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, u atrof-dagi ekotizimlarga eng kam ta'sir ko'rsatish yoki ularning go'zalligi va ahamiyatini saqlash hamda oshirishga hissa qo'shishni nazarda tutadi.

"Yashil" ziyorat loyihasi — qiymati 1,18 mln. yevro bo'lgan, besh yillik "Interreg Europe" tashabbusi bo'lib, u Buyuk Britaniya, Italiya, Norvegiya, Shvetsiya va Ruminiyaning oltita mintaqasi tomonidan ishlab chiqilgan. Loyiha tabiiy va madaniy merosni kompleks boshqarish hamda rivojlantirishni rag'batlantirishni maqsad qiladi. Uning asosiy yo'nalishi — o'sish va rivojlanish siyosatini tabiiy hamda madaniy merosni muhofaza qilish va



boyitish bilan uyg'unlashtirish hamda ziyorat turizmi orqali iqtisodiy foydalanish imkoniyatlarini namoyon etishdir [3].

BMT Turizm tashkiloti statistik ma'lumotlariga tayanib aytish mumkinki, turizm iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy drayverlardan biri hisoblanadi. Ziyorat turizmi xalqlarning etnik kelib chiqishi va e'tiqodi bilan bevosita bog'liq bo'lib, uni iqtisodiy rivojlanish vositalaridan biri sifatida ko'rish lozim. Bu fikr zamirida, bugungi kunda sayyohlik sanoatining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri sifatida tan olingan ziyorat g'oyasining kuchiga e'tibor qaratish yotadi. Zero, jahon miqyosida har yili 300 mln. nafardan ortiq ziyorat sayohatlari amalga oshiriladi [4].

"Yashil" ziyorat loyihasi Yevropa bo'ylab ziyorat yo'llari orqali tabiiy va madaniy merosni qo'llab-quvvatlash, shuningdek qishloq hududlarida ish o'rinlari, tijorat va rivojlanish imkoniyatlarini mutanosib hamda barqaror tarzda yaratish va rivojlantirish bo'yicha eng yaxshi tajribalarni to'plagan. Ushbu ijobiy o'zgarishlar qatoriga kam salbiy ta'sirli turizmni targ'ib qilish, raqamlashtirish, ziyoratchilar uchun turar joy infratuzilmasini yaratish, mahalliy an'analar va hududning o'ziga xos xususiyatlarini mustahkamlash kabi yutuqlar kiradi.

Bundan tashqari, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida, xususan, so'nggi muzlik davrining oxirida ham marosim xarakteridagi sayohatlar mavjud bo'lganiga oid dalillar mavjud. Jumladan, Stounxenj atrofida miloddan avvalgi sakkizinchi ming yillikka oid manzilgozlar va yodgorliklar qurilgani haqida arxeologik ma'lumotlar mavjud [5].

Ziyorat — dunyodagi barcha asosiy dinlarda kuzatiladigan amaliyot bo'lib, insonning e'tiqodi uchun muhim bo'lgan joyga jismoniy sayohat qilishni o'z ichiga oladi. Bunda maqsad — ziyoratgohning qudrati bilan aloqa o'rnatish yoki qadimiy an'analar izidan borishdir. Ziyoratning asosiy maqsadlari — ma'naviy yangilanish, ichki poklanish, o'tmishdan voz kechish, kelajak uchun yo'l-yo'riq olish, ziyorat marosimini ado etish yoki jismoniy va ruhiy shifo topishdan iborat bo'ladi. Ushbu hudud miloddan avvalgi uchinchi va ikkinchi ming yilliklarda ziyoratgoh sifatida o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetgan [6].

Ziyoratning o'rta asr ildizlari ushbu so'zning etimologiyasida ham aks etgan. "Ziyorat" atamasi lotincha "peregrinum" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "chet ellardan kelgan kishi" degan ma'noni anglatadi. Mazkur tushuncha ziyoratning odatdagi diniy ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, muqaddas joyga sadoqat asosida qilinadigan safarni ifodalaydi.

"Yashil" ziyorat loyihasiga 2017-yilda asos solingan bo'lib, u Yevropadagi "yashil" yoki ekologik toza ziyoratni targ'ib qilishga sodiq bo'lgan ziyorat joylari, yo'llari va shaharlari tarmog'i — Yevropa "Yashil" ziyorat tarmog'i (EGPN — European Green Pilgrimage Network) taklifi asosida yuzaga kelgan. EGPN tarkibidagi bir nechta a'zo institutlar, maslahatchilar va manfaatdor tomonlar loyiha ustida faol ish olib borganlar. Yevropa "Yashil" ziyorat tarmog'i ziyoratning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish va ekologik muhofazani diniy mas'uliyat sifatida targ'ib qilishni o'z oldiga maqsad qilgan. Bu — ziyoratchilar yo'llari va ziyoratgohlar bo'ylab biologik xilma-xillikni himoya qilish hamda ziyoratchilarga yer yuzida erkin sayohat qilishlariga ko'mak berishni anglatadi [7].

"Yashil" ziyorat tarmog'i qayta tiklanadigan energiya, kam uglerodli transport, toza suv, chiqindilarni samarali yig'ish va qayta ishlash orqali "yashil" ziyoratgohlar uchun diniy guruhlar, munitsipalitetlar, sayyohlik tashkilotlari va boshqa dunyoviy tashkilotlar bilan hamkorlik qiluvchi tarmoqdir. "Yashil" ziyorat — bu mahalliy atrof-muhitga hurmat bilan yondashgan holda erkin ziyorat amaliyotini ado etishdir.

Shu bilan birga, ayrim hollarda ziyorat amaliyoti mahalliy ifloslanish va pestitsidlardan foydalanishning ortishiga, xavf ostida qolgan yovvoyi tabiatning bezovta qilinishiga, uglerod chiqindilarining ko'payishiga hamda boshqa ekologik zararlarining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.


"Yashil" ziyoratning asosiy maqsadi — ziyoratning atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini, ya'ni energiya, suv, chiqindilar va uglerod emissiyalarini kamaytirish, biologik xilma-xillikni muhofaza qilish va Yer yuzini himoya qilish uchun barqaror hayotning yangi usullarini ilgari surishdan iborat. Bu tashabbus ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va madaniy yo'nalishlarda bir nechta ijobiy ta'sirni keltirib chiqaradi. Ya'ni, ekologik barqarorlikni saqlagan holda jamiyat hayotiga iqtisodiy foyda olib kirish imkonini beradi. Shu bilan birga, u e'tiqodidan qat'i nazar, barcha ziyoratchilarni madaniyat va qadriyatlarni hurmat qilishga chorlaydi.

Yevropa "Yashil" ziyorat tarmog'i asosida tashkil etilgan loyihaning quyidagi asosiy maqsad va vazifalari mavjud:

- Ziyoratning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish;
- Mahalliy ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiyotni rag'batlantirishni qo'llab-quvvatlovchi yashil iqtisodiyotni rivojlantirish;
- Qayta tiklanadigan energiya, kam uglerodli transport, toza suv, mahalliy ishlab chiqarilgan oziq-ovqat, hunarmandchilik mahsulotlari va turar joylar, shuningdek, chiqindilarni samarali yig'ish va qayta ishlash kabi tashabbuslarni ilgari surishda diniy guruhlar, munitsipalitetlar, sayyohlik tashkilotlari va boshqa dunyoviy subyektlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;



- Ziyorat yo'llari va ziyoratgohlarda biologik xilma-xillikni muhofaza qilish va tiklash;
- “Yashil” ziyorat standartlarini belgilash hamda ularni butun Yevropa bo'ylab qabul qilishni ta'minlash.
- Atrof-muhitni muhofaza qilishni diniy mas'uliyat sifatida targ'ib etish;
- Sayyoramizni himoya qilish uchun barqaror hayotning yangi usullarini qabul qilib, ziyoratchilarni tabiat bilan yana bog'lanishga va ruhiy jihatdan o'zgarib uyga qaytishga ilhomlantirish;
- E'tiqodi va kelib chiqishidan qat'i nazar, ziyoratning mehmondo'stlik, begonalarni qabul qilish va o'zaro ochiqlik kabi umuminsoniy qadriyatlarini targ'ib etish;
- Atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish qanday diniy mas'uliyat ekanligini namoyon etuvchi “yashil” ziyoratga oid mahalliy ilohiy qarashlarni ishlab chiqish (1-rasm).



1-rasm. Ziyoratgohlarni “yashillashtirish” ning asosiy yo‘nalishlari



Yuqoridagi 1-rasmga asosan, ziyoratgohlarni “yashillashtirish”ning asosiy sakkizta yo‘nalishi keltirilgan bo‘lib, har biri alohida bandlarga ajratilgan. Loyiha doirasida ushbu yo‘nalishlarning har biri uchun maxsus tavsiyalar ishlab chiqilgan. Yo‘nalishlar quyidagilardan iborat: “yashil” infratuzilma va binolarni joriy etish, chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish, energiya samaradorligini oshirish va transport tizimini “yashillashtirish”, suv resurslarini ekologik jihatdan barqaror boshqarish, “yashil” sog‘lom oziq-ovqat tizimini yo‘lga qo‘yish, yer, biologik xilma-xillik va yovvoyi hududlarni muhofaza qilish, “yashil” bayram va festivallarni tashkil etish hamda “yashillik” bo‘yicha ta‘lim va xabardorlikni keng targ‘ib qilish.

Ziyorat turizmida faqat an‘anaviy ibodat joylarigina emas, balki ofislar, zallar, yotoqxonalar, ziyorat markazlari, kafelar, qabul markazlari, sayyohlik ofislari, turar joylar, avtovokzallar kabi obyektlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bular — ziyoratchilar tashrif buyuradigan asosiy maskanlar bo‘lib, agar ular “yashil” va barqaror shaklda tashkil etilgan bo‘lsa hamda nega va qanday qilib “yashil” ekani haqida aniq ma‘lumotga ega bo‘lsa, bu holat ziyoratchilar va mehmonlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, har qanday yangi bino ekologik toza tamoyillar asosida qurilishi kerak. Ammo mavjud binolarni ham atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish maqsadida “yashil” me‘yorlarga moslashtirish mumkin (1-jadval).

1-jadval. “Yashil” infratuzilma va binolarni joriy etish bo‘yicha loyiha doirasidagi tavsiyalar

Binolarni “yashillashtirish”	Ziyoratchilarning uchun “yashil” joylashtirish vositalarini joriy etish
<ul style="list-style-type: none"> - Barqaror boshqaruv rejasini ishlab chiqish orqali barcha e‘tiqod va munitsipal binolar hamda ibodat joylarining ekologik holatini yaxshilash; - ishonchli yashil binolarni sertifikatlash mezonlari tizimlarini yaratish; - rejalashtirish bosqichidan boshlab barcha yangi binolar ekologik toza ekanligiga ishonch hosil qilish; - ibodatxonalarni, ziyorat ob‘ektlarini asrash, “yashillashtirish” bo‘yicha qo‘llanma chop etish va tarqatish; - ekologik lampochkalardan foydalanish; - isitish va konditsionerni qisqartirish; - quyosh energiyasini o‘rnatish, binolarni samaraliroq izolyatsiya qilish; - mebel, gilam, bo‘yoq va boshqalarni sotib olish siyosatini o‘rnatish 	<ul style="list-style-type: none"> - yashil mehmonxona va xostellarni narxi, yaqinligi va jozibadorligi, resurslar va tabiatga bo‘lgan munosabatga asoslanib tavsiya etish; - mehmonxonalarda ekologik audit o‘tkazishni o‘rnatish va ular o‘zlarini yaxshilay olish-olmasligini aniqlash, ularni ziyoratchilarga tavsiya qilish mumkinligini tushunish; - qo‘llab-quvvatlanadigan Yevropa mehmonxona energiya yechimlari loyihasiga qarash; - ziyorat yo‘nalishining yashil xaritasini yaratish, unda ziyoratchilar ekologik toza mehmonxona va hostellarni qaerdan topishlari mumkinligini ko‘rsatish; - harakat qilayotgan joylarni aniqlash uchun xaritalar va belgilarda logotipdan foydalanish

Jahon bo‘ylab qurilish sanoati har bir loyihada o‘rtacha 30 foizni, ba‘zan esa materiallar, vaqt va resurslarning 50 foizdan ortig‘ini behuda sarflaydi. Bu esa, o‘z navbatida, resurslarning ortiqcha isrof bo‘lishiga olib keladi [8].

Shuningdek, Buyuk Britaniyada qayta ishlash yiliga 10 dan 15 million tonnagacha karbonat anhidrid ekvivalentini tejashga imkon beradi. Bu ko‘rsatkich qariyb 3,5 million avtomobilni yo‘ldan olib tashlashga teng bo‘ladi. Afsuski, ko‘pgina mamlakatlarda qayta ishlash yoki hattoki chiqindilarni yig‘ish inshootlari mavjud emas [9]. Shu kabi joylarning ba‘zilarida ziyorat shaharlari chiqindilarni yig‘ishni joriy etish uchun potensial model sifatida ko‘rilmogda.

Birinchi navbatda, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik lozim. Isrofgarchilikka olib keladigan, ayniqsa ortiqcha qadoqlangan mahsulotlarni xarid qilmaslik kerak. O‘rinbosar tovarlarni sotib olishdan avval esa, mavjud resurslarni qayta ishlatishga e‘tibor qaratish muhim. Ushbu masala bo‘yicha loyiha doirasida quyidagi alohida tavsiyalar ishlab chiqilgan (2-jadval).



2-jadval. Chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha loyiha doirasidagi tavsiyalar

Foydalanmaslik, qayta foydalanish va qayta ishlash	Bepul plastik paketlarni taqiqlash
<ul style="list-style-type: none"> - mahalliy hududda chiqindilarni boshqarish va kanalizatsiya muammolari mavjud bo'lsa, munitsipalitet, ommaviy axborot vositalari va mahalliy diniy jamoalar bilan birgalikda yechim topish uchun yuqori darajada ishlash; - mintaqa yoki mamlakatda ushbu muammolar hal qilingan namunaviy shaharni aniqlash va ular buni qanday amalga oshirganini bilib olish; - shahar hokimiyatiga yordam berish va odamlarga axlatni ko'chaga tashlamaslik uchun namuna bo'lish uchun diniy va ziyoatlar ob'ektlarini tozalash kunlarini tashkil qilish; - maktablar va kollejlarda beg'araz kampaniyalarni targ'ib qilish va ziyoratchilarga targ'ib qilish; - ziyoratgohlar, ibodatxonalar, maktablar, kafelar va diniy yig'ilishlarda chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmayotganini tekshirish 	<ul style="list-style-type: none"> - bepul plastik idishlardan iloji boricha foydalanmaslik; - bir martalik idishlar o'rniga ko'p martalik idishlardan foydalanish - ziyoratgohlarda maxsus axlat tashlash joylarini xavfsiz tashkil etish. - paketlar toza mahsulotlardan, rangsiz va ishlab chiqaruvchining nomi yozilgan bo'lishini ta'minlash

Mazkur jadvalga asosan, chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari sifatida ekologik toza mahsulotlardan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini joriy etish hamda ularni monitoring qilish zarurati aniqlangan.

Ziyorat hududlari uchun energiya tejash siyosatini ham ko'rib chiqish lozim. Bu borada ziyoratgohlarda quyosh panellarini o'rnatish, energiya tejamkor lampochkalardan foydalanish, zararsizlik bo'yicha kafolatlarni joriy etish, ekologik sertifikatlash sxemalarini ishlab chiqish va mukofotlar tizimini shakllantirish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, transport infratuzilmasini "yashillashtirish" zarur. Chunki turizm bilan bog'liq uglerod chiqindilarining taxminan 75 foizi transport vositalariga to'g'ri keladi. Shu sababli, "yashil" ziyoratlarni tashkil etishda transport vositalarining atrof-muhitga zararini kamaytirishga alohida e'tibor qaratish kerak. Sayyohlik agentliklari, sayohat guruhlari va yo'l boshchilar piyoda yurish, velosipedda harakatlanish va jamoat transportidan foydalanishni targ'ib etish orqali ijobiy natijalarga erishishlari mumkin. Buning uchun sekin harakatlanish zonolari, maxsus velosiped yo'laklari, qulay velosiped to'xtash joylari, piyodalar uchun xavfsiz yo'l infratuzilmasi va yashil energiyada ishlovchi avtobuslar joriy etilishi maqsadga muvofiq. Har bir sayohatchining alohida emas, balki birgalikda harakatlanishini rag'batlantirish, jamoat transporti haqida xaritalar, avtobus va metro yo'nalishlari bo'yicha tushunarli ma'lumot berish hamda mahalliy ekologik NNT va hokimliklar bilan hamkorlikda "yashil" transport tarmog'ini rivojlantirish lozim.

"Yashil" ziyorat tizimini barpo etishda suv resurslarini boshqarishga ham alohida e'tibor qaratilishi kerak. Suvdan samarali foydalanish bo'yicha quyidagi tavsiyalar mavjud: suv tejavchi texnologiyalardan foydalanish, ziyoratchilar yo'li va maktablar yaqinidagi kanalizatsiya hamda sanitariya inshootlarini yaxshilash, yog'ingarchilik suvidan bog'dorchilikda foydalanish va zamonaviy suv tejash tizimlarini joriy etish.

"Yashil" ziyorat doirasida ziyoratchilarning sog'lom ovqatlanishi ham muhim yo'nalishlardan biridir. Mahalliy meva-sabzavotlardan tayyorlangan ekologik toza oziq-ovqat va ichimliklarni taqdim etish lozim. Bu borada loyiha quyidagi tavsiyalarni ilgari suradi:

- Go'shti iste'mol qilinadigan hayvonlarni parvarishlashda ularga nisbatan shavqatli munosabatda bo'lish;
- Dehqonchilikda ishlatiladigan kimyoviy vositalardan imkon qadar kamroq foydalanish;
- Muqaddas joylarni asrab-avaylash;
- Muqaddas joylarning ekologik holatini, ziyoratgohlar atrofidagi o'rmonlar, tog'lar, buloqlarning barqaror boshqarilishini doimiy nazorat qilish;
- Ziyoratchilar yuradigan so'qmoqlar joylarini ekologik barqarorlik nuqtayi nazaridan yaxshilash va alohida nazoratga olish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

"Yashil" ziyorat turizmini joriy etishning eng muhim jihatlaridan biri — odamlarga ushbu tashabbus mohiyatini tushuntirish va atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatda bo'lish iymonning ajralmas qismi ekanini anglatishdan iboratdir. Bu nafaqat tegishli dasturlarni ishga tushirish uchun zarur, balki ularning uzoq muddatli istiqbolda samarali qo'llanilishini ta'minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz ham yuqori ziyorat turizmi salohiyatiga ega ekanini inobatga olgan holda aytish mumkinki, Yevropaning "Yashil" ziyorat loyihasining amaliy jihatlarini joriy etish orqali biz ziyorat obyektlarining xizmat muddatini uzaytira olamiz, shuningdek, ziyoratchilar faoliyati va ziyorat turizmining atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. [Matthew Nouch Green Pilgrimage: Lessons Learned for Sustainable Economic Growth 2020, Interreg Green Pilgrimage Project 2017 – 2022](https://doi.org/10.13140/RG.2.2.24294.65608) <https://doi.org/10.13140/RG.2.2.24294.65608>
2. Richards J. (1990). The Stonehenge Environs Project. London: English Heritage.
3. Darvill T. (2016). Roads to Stonehenge: a prehistoric healing centre and pilgrimage site in southern Britain. In Ranft, A. & Schenkluhn, W. (Eds.). Kulturstraßen als Konzept. 20 Jahre Straße der Romani (pp.155–166). Regensburg: Schell & Steiner.
4. <https://www.greenpilgrimageeurope.net/about-the-egpn.html>
5. Green pilgrimage network. A handbook for faith leaders, cities, towns and pilgrims. <https://www.greenpilgrimageeurope.net/key-areas-to-consider.html>
6. Green pilgrimage network. A handbook for faith leaders, cities, towns and pilgrims. <https://www.greenpilgrimageeurope.net/key-areas-to-consider.html>
7. Coelho P. (1987). O diário de um mago. Rio de Janeiro: Rocco.
8. Brown D. (2003). The Da Vinci Code. London: Bantam Press.
9. Bowman M. (2016). Valuing spirituality: Commodification, consumption and community in Glastonbury. In Gauthier, F. & Martikainen, T. (Eds.). Religion in Consumer Society: Brands, Consumers and Markets (pp.207–224). Abingdon: Routledge
10. Brundtland G.-H. (1987). Our Common Future: Report of the World Commission on Environment and Development (WCED) chaired by Gro Harlem Brundtland. Oxford: Oxford University Press.
11. European Commission. (2018). 2030 climate and energy framework. Brussels: European Commission.
12. HM Government. (2019). UK becomes first major economy to pass net zero emissions law.
13. <https://www.gov.uk/government/news/uk-becomes-first-major-economy-to-pass-net-zero-emissions-law> , accessed 02-11-2019.
14. White Jr., L.T. (1967). The historical roots of our ecologic crisis. Science, 155(3767), 1203–7
15. <https://www.un.org/en/climatechange/science/key-findings#physical-science>
16. <https://www.un.org/en/climatechange/science/key-findings#physical-science>
17. www.unwto.org



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>